



**OITS YUQISH YO'LLARI, OITSNI ONADAN BOLAGA
O'TISH YO'LI, OITS NI QON ORQALI YUQISHI, OITS
DIAGNOSTKASI, OITS PROFLAKTIKASI, OITSNI
DAVOLASH, O'ZBEKSTONDA OTIS GA QARSHI OLIB
BORILYOTGAN ISHLAR**

Umarov Faxriddin Baxriddin o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7432021>

ARTICLE INFO

Received: 01st December 2022

Accepted: 11th December 2022

Online: 12th December 2022

KEY WORDS

OITS, OIV, infeksiya, retrovirus, antirertovirus, rektal, genital, bakteriyalar, viruslar, zamburug', proteaza ingibitor, integraza ingibitor, Elvitegravir (Vitekta), Dolutegravir (Tivisay) , Raltegravir (Isentress), Abakavir (Ziagen), Lamuvudin , Zidovudin (Kombivir) , emtrisitabin (Emtriva), UTT, endoskop, bronxoskop, dansitometr, EKG diagnostika.

OITS (ortirilgan immun tanqisligi sindromi) - sindromi OIV (orttirilgan immun tanqisligi virusi) tomonidan chaqiriladigan kasallik. Kasallik inson immun tizimini o'zgartiradi, infektion va boshqa kasalliklarga sezuvchanlikni oshiradi. Agar bu sindrom rivojlansa bu sezuvchanlik yanada oshadi.

OIV virusi odamning barcha to'qimalarida uchraydi, zararlangan odamning organizm ichki suyuqliklari orqali yuqadi. Masalan sperma, qin ajralmasi, qon va ko'krak suti orqali tarqalishi aniqlangan.

OIV - bu virus odamning immun hujayrasi bo'lgan CD-4 hujayralarini zararlaydi. OITS

ABSTRACT

Maqolada hozirgi kunning dolzarb momolaridan biri bo'lgan OITS kasalliklarning asosiy omillari talqin etildi. Bu borada shifokorlarning tafsiyalari keltirilgan. Bu maqolada OIV va OITS, ularning simptomlari, sabablari va davolash haqida ma'lumot berilgan, OITS kasallikarning obyektiv va sbyektiv omillari tushuntirilgan. O'zbekistonda aholi o'rtasida OITS kasaliklarga qarshi olib boriliyotgan ishlar haqida malumotlar berilgan.

- bu sindrom OIV virusining immun tizimiga bo'lgan ta'siri natijasida yuzaga keladi.

OIV - bu virus.

OITS - bu organizmning immun tanqislik holati.

OIV - virusi OITS ning rivojlanishi sababidir. Ba'zi hollarda esa virus bilan zararlangan odamlarda OITS rivojlanmasligi mumkin. OITS ko'p hollarda OIV o'z vaqtida davolamaslik natijasida yuzaga keladi.

OIV - bu retrovirus oilasiga kiradi, organizmning muhim organlari va immun tizimi hujayralarini zararlaydi. Agar



virusning rivojlanishiga qarshi antiretovirus terapiyasi olib borilmasa, virus organizmda tez rivojlanadi. Virusning rivojlanishi turli omillarga bog'liq. Bular insonning yoshi, organizmning OIV virusdan himoya xususiyati, sog'ligi, boshqa infeksiyalar, irsiy omillar bo'lishi mumkin.

OIV qanday yuqishi mumkin?

Jinsiy aloqa – bu yo'l bilan zararlangan jinsiy suyuqliklar (rektal, genital va og'izning shilliq qavat) natijasida yuqadi. Bu holat jinsiy aloqa paytida himoya vositalaridan foydalanilmaganda, atipik jinsiy aloqa bo'lganda, yoki ishlatiladigan ashyolar orqali sodir bo'lishi mumkin.

Onadan bolaga – OIV bilan zararlangan ayoli farzandiga OIV virusi bilan tug'ruq davomida, homiladorlikda, ko'krak suti bilan oziqlantirish paytida yuqtirishi mumkin.

Qon orqali – bu yo'l orqali yuqish rivojlangan mamlakatlarda qon quyish jarayonida ko'proq sodir bo'ladi. Bu holatda tomir ichiga yuboriladigan narkotik shprislarini o'zgartirmasdan yoki zararlangan shpirslar orqali yuborilganda zararlanish kuzatiladi.

OITS belgilari

OIV ning belgilari asosan ikkilamchi infeksiyalar bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar bilan zararlanish natijasida yuzaga chiqadi. Agar odamning immun tizimi sog'lom bo'lsa, bu holat rivoqlanmasligi ham mumkin.

OIV ning boshlang'ich belgilari

Ba'zi OIV bilan zararlangan insonlarda kasallikning belgilari oylab, hatto yillab ham kuzatilmasligi mumkin. 80% holatda virus bilan zararlangandan so'ng 2-6 haftadan so'ng gripp bilan zararlangan holatdagi belgilari kuzatilishi mumkin. Buni o'tkir retrovirus sindromi deyiladi.

OIV boshlang'ich simptomlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Yuqori harorat;
- Qaltirash;
- Bo'gimlarda og'riq;
- Mushaklarda og'riq;
- Tomoq og'rig'i;
- Tunda ko'p terlash;
- Bezlarning kattalashuvi;
- Tanada qizil rangli toshmalar;
- Tez charchash;
- Tezda vazn yo'qotish.

Shuni yodda tutish kerakki yuqoridagi belgilari faqatgina OIV virusning o'zi bilan emas, balki ikkilamchi viruslar bilan zararlangan keyin yuzaga keladi.

Belgisiz OIV

Ko'p hollarda OIV bilan zararlangan insonlarda birinchi zararlanish belgisidan so'ng ko'p yillar davomida hech qanday belgilari kuzatilmasligi mumkin. Bu vaqt oraliqda virus ko'payadi va immun tizimi va organlarni zararlaydi. Agar OIV virusini virusga qarshi dori vositalarni qo'llanmasa, organizm immun tizimi o'rtacha 10 yil faoliyat ko'rsatishi aniqlangan. OIV bilan zararlangan insonda hech qanday belgilari yuzaga chiqmaydi, o'zini yaxshi his qiladi, sog'lig'idan shikoyat qilmaydi.

Antiretovirus preparatlarini har kuni qabul qiladigan insonlarda virusning ko'payishi butunlay to'xtashi mumkin. Antiretovirus preparatlari immun tizimiga doim zararli ta'sir ko'rsatib keladi.

Agar inson davolanmasa, OIV immun tizimining infeksiyalarga qarshi kurash qobiliyatini butunlay to'xtatadi. Inson jiddiy kasalliklarga uchraydi. Bu bosqich OITS holatidir.

Simptomlari

- Ko'z oldi xiralashishi;
- Doimiy ich ketishi;
- Quruq yo'tal;



- Haroratning hafta davomida 37 darajadan yuqori bo'lishi;
- Tungi vaqtida ko'p terlash;
- Doimiy charchoq;
- Nafas qisishi;
- Bezlar kattalashuvi;
- Tezda vazn yo'qotilishi;
- Og'iz bo'shlig'ida va tilda oq dog'lar.

OITSni aniqlash (Diagnostikasi)

Ma'lumotlariga ko'ra, kasallik bilan zararlangan har 8 insondan 1 si o'zining OIV bilan zararlangani bilmaydi. OIV virusining tashxisi umumiyligini qon tahlili orqali aniqlanadi. Agar OIV topilsa, musbat natija bo'ladi. Bu analiz takror qilib ko'rildi. Agar inson virus bilan zararlanish holatiga uchragan bo'lsa, tezroq analiz tahlili topshirishi kerak. Qanchalik erta qo'yilgan tashxis, shunchalik davolashning unumini oshiradi. Virus bilan zararlangandan so'ng 3 oydan 6 oygacha test o'tkazish kerak.

OITSni davolash

Hozirgi kunda OIV va OITS ga qarshi maxsus dori vositasi mavjud emas. Ayni mavjud bo'lgan davolash usullari bilan insonlarni OIV virusi bilan uzoqroq muddat yashashini ta'minlash mumkin.

OIV antiretrovirusga davolashning erta boshlanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki bu orqali insoni hayoti davomiyligini uzaytirish mumkin.

Hozirgi kundagi OIV virusi bilan zararlangan odamlarga faqatgina ulardagagi virusning ko'payishini to'xtatish orqali yordam berish mumkin. Agar inson virus bilan oxirgi 72 soat mobaynida zararlangan bo'lsa, virusga qarshi preparatlar virusni ko'payishini to'xtatishi mumkin. Bu davolash kursi 4 hafta mobaynida o'tkazilishi shart. Davolashdan OIV kuzatuvlari davom ettiriladi.

Antiretrovirus preparatlari

OIV antiretrovirus preparatlari bilan davolanadi. Davolash OIV ning organizmda tarqalishini oldini olishga qaratilgan. OIV bilan zararlangan odamlar bir necha dorilar kombinatsiyalarini qabul qilishlari shart.

Antiretrovirus preparatlar quyidagilar:

Proteaza ingibitorlari

Proteaza – bu ferment virusning o'zidan nusxa ko'chirish bosqichiga ta'sir ko'rsatadi. Bu dori vositalariga: Atanazavir/kobistat (Evotaz), Lopinavir/ Ritonavir (Kaletra) va Darunavir/ kobistat lar kiradi

Integraza ingibitorlari

OIV virusi integraza fermenti orqali organizmning T-hujayralarini zararlaydi. Bu hil dori vositalari aynan shu jarayonni to'xtatadi. Bu preparatlar ko'p ishlataladi, nojo'ya ta'sirlari kam. Bu dori vositalariga: Elvitegravir (Vitekta), Dolutegravir (Tivisay) va Raltegravir (Isentress) kiradi.

Qayta transkriptaza ingibitorlari

Bu dori vositalari virusning nusxa ko'chirish jarayonini to'xtatadi. Bu preparatlar: Abakavir (Ziagen), Lamuvudin/ Zidovudin (Kombivir) va emtrisitabin (Emtriva).

Komoretseptor xemokin antogonsitlari

Bu dori vositalari virusning hujayra ichiga kirishini to'xtadi.

Yuqorida dori vositalarini birgalikda qo'llash kerak. OIV ning davosi hayot davomida olib boriladi. Dori vositalari to'xtovsiz qabul qilinadi. Har bir antiretrovirus preparatları o'zining nojo'ya ta'sirlariga ega.

OITS ning oldini olish choraları

OIV ning oldini olish choralarini har bir tibbiyot xodimi bilishi zarur:

Himoya vositalarisiz jinsiy aloqa – bu yo'l bilan inson OIV va boshqa jinsiy a'zolarning infekzion kasalliklarini yuqtirib



olishi mumkin. Prezervativlar har bir jinsiy aloqa uchun alohida va to'g'ri ishlatalishi zarur.

Narkotik vositalarni qabul qilishda — tomir ichiga qabul qilinadigan narkotik vositalari rivojlangan mamlakatlarda OIV tarqalishida asosiy o'rinda turadi. Bu yo'l orqali yana gepatitning C turi ham tarqaladi. Agar ignalarni ishlatish zarurati tug'ilsa, igna steril, avval ishlatilmagan, ochilmagan bo'lishi kerak.

Tibbiy xodimlar — OIV bilan zararlangan kasallar bilan ishlovchi tibbiyat xodimlari maxsus qo'lqoplar, niqob, himoya ko'zoynaklari, xalatlar bilan ishlash talab etiladi. Agarda teriga qon tegadigan bo'lsa, darhol terini suv bilan yuvish zararlanishni oldini oladi.

Homiladorlikda — bazi antiretrovirus dorilari homilaga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun keserva kesish yo'li bilan tug'gan ma'qulroq. OIV bilan zararlangan ayol ko'krak suti bilan virusni farzandiga yuqtirishi mumkin.

Psixologik — dunyodagi ko'pchilik OIV bilan zararlangan insonlar o'zini zararlanganliklarini oshkor etmaydilar. Natijada OIV tashxisi kechikadi. Vaqtida qo'yilmagan tashxis og'ir oqibatlar bilan yakunlanadi.

"O'zbekiston Respublikasida odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi.

Belgilanishicha, respublikada OIV infeksiyasi tarqalishini oldini olish borasida o'tgan yillar davomida qator ishlar amalga oshirildi. 2018 yil 25 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston

Respublikasida odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018 yil 22 iyunda "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish va shifoxona ichki infeksiyalarini profilaktika qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori tasdiqlandi.

OIV infeksiyasi bo'yicha epidemik vaziyatning barqarorlashuvi va OIV infeksiyali shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordamning ta'minlanishi yaxshilanib borilishiga qaramasdan, 2030 yilga borib OIV infeksiyasi epidemiyasiga barham berishga erishish uchun "90-90-90" tamoyiliga muvofiq tadbirlarni amalgalash oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, o'z yechimini kutmoqda.

Xususan, OITSga qarshi kurash markazlarining tuman darajasida tuzilmasi mavjud emas. Bu holat OIV infeksiyasi tarqalishini oldini olish va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni to'liq amalgalash oshirish va muvofiqlashtirish imkonini bermaydi. Bu o'z navbatida qishloq (mahalla) aholisiga zaruriy xizmatlarni ko'rsatilishini qiyinlashtirmoqda.

Shu tufayli, tumanlararo OIV diagnostik laboratoriyalari qoshida epidemiolog va yuqumli kasalliklar shifokoridan tarkib topgan OITSga qarshi kurash markazlarining tuman filiallarini tashkil etish ehtiyoji mavjud. OITSga qarshi kurash markazi laboratoriyalari Xalqaro akkreditatsiyadan o'tmagan. Milliy akkreditatsiyadan o'tishni belgilovchi me'yoriy hujjat qabul qilinmagan.

Laboratoriyalarda har yili o'lchov asbob-uskunalarini Davlat standartlash



markazida metrologik ko'rikdan o'tkazish zarurati mavjud bo'lib, viloyatlarda bunday ko'riklarni tashkil etish uchun imkoniyatlar yaratilmagan. 19 ta tumanlararo laboratoriylar kapital ta'mirlashga muhtoj.

OITSga qarshi kurash markazlari xizmatida bo'lgan avtotransportlarning aksariyati 1993 yilda va 2004-2008 yillarida (84,2 foiz) ishlab chiqarilgan va texnik ekspluatatsiya talablariga javob bermaydi. Mavjud avtotransportlarni yangisiga almashtirish va OITSga qarshi kurash markazlari uchun maxsus transportlarni xarid qilish orqali avtoparkni to'liq jihozlash talab etiladi.

Aholining, ayniqsa qishloq aholisining OIV infeksiyasi bo'yicha xabardorligini va kasallik yuqishini oldini olish bo'yicha hushyorligini oshirish maqsadida Internet tarmog'ida OIV infeksiyasi masalalari bo'yicha maxsus axborot portalini yaratish zarur.

OITSga qarshi kurash markazlari poliklinikalari OIV infeksiyali bemorlarda ko'p uchraydigan ichki a'zolar kasalliklarini aniqlashga mo'ljallangan UTT, endoskop, bronxoskop, dansitometr, EKG diagnostik apparatlari bilan ta'minlanmagan.

Aholining OIV infeksiya yuqishi xavfi yuqori guruhlarda, shuningdek, chet davlatga chiqib ketayotgan va qaytgan mehnat migrantlari, ularning oila a'zolari hamda OIV infeksiya bilan kasallangan bemorlarning yaqinlari orasida tushuntirish ishlari samarasini yanada oshirish talab etiladi. Uzoq xorij va hamdo'stlik mamlakatlari tajribalarini o'rganish, ular bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borish, mutaxassislar salohiyatini boshqa davlatlarda olib borilayotgan dasturlar

bo'yicha muntazam oshirib borish uchun mablag'lar ajratilmagan.

Yangi qarorni qabul qilish va amalgma oshirish orqali kutilayotgan natijalar:

1. OIV infeksiyasi tarqalishini oldini olish va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni samarasini oshirish va bu tadbirlarni tuman darajasida doimiy muvofiqlashtirish hamda qishloq (mahalla) aholisiga zaruriy xizmatlar ko'rsatilishini yaqinlashtirish maqsadida tumanlararo OIV diagnostik laboratoriylari qoshida epidemiolog va yuqumli kasalliklar shifokoridan tarkib topgan OITSga qarshi kurash markazlarining tuman filiallarini tashkil etish.

2. Aholining, shu jumladan OIV infeksiya yuqishi xavfi yuqori guruhlarda, chet davlatga chiqib ketayotgan va qaytgan mehnat migrantlari, ularning oila a'zolari hamda OIV infeksiya bilan kasallangan bemorlarning yaqinlari orasida tushuntirish ishlari samarasini oshirish maqsadida Internet tarmog'ida OIV infeksiyasi masalalari bo'yicha maxsus axborot portalini yaratish.

3. Laboratoriyalardagi uskunalarini muntazam metrologik ko'rigini amalgma oshirish uchun har bir laboratoriya uchun mahalliy byudjetdan yetarli mablag' (har bir laboratoriya 3 mln. so'm) ajratish va Davlat standartlash markazining zamonaviy texnologiyalarni metrologik ko'rikdan o'tkazishni ma'muriy hududlarda tashkil etish.

4. OITSga qarshi kurash markazlarini avtotransportlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, OITSga qarshi kurash markazlari uchun maxsus transportlar xarid qilish orqali avtoparkni to'liq jihozlash (18 ta DAMAS).

5. OIV infeksiyali bemorlarda ko'p uchraydigan ichki a'zolar kasalliklarini



aniqlash uchun OITSga qarshi kurash markazlari poliklinikalariga UZI, endoskop, bronxoskop, dansitometr, EKG diagnostik apparatlarini xarid etishga mablag' ajratish.

6. Uzoq xorij va hamdo'stlik mamlakatlari tajribalarini o'rganish, ular bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borish, mutaxassislar salohiyatini boshqa davlatlarda olib borilayotgan dasturlar bo'yicha muntazam oshirib borish uchun yetarli mablag' ajratish va OIV infeksiyasi profilaktikasi, davolash va diagnostikasini yanada samarasini oshirish maqsadida mutaxassislarni ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan yangi usullarini joriy qilib, malakasini oshirishni kuchaytirish.

7. Jizzax, Namangan, Xorazm, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari OITSga qarshi

kurash markazlari uchun zamonaviy talablarga javob beradigan yangi binolar qurish va 19 tumanlararo laboratoriyalarda kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirish. Qarorning qabul qilinishi OIV infeksiyali shaxslarni erta aniqlash, kasallikni boshqalarga yuqishini oldini olish borasidagi profilaktik tadbirdarni tez amalga oshirish va bemorlarni samarali davolash hamda ularga zarur boshqa tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha yangi sifatli bosqich bo'lib xizmat qiladi va mamlakatning xalqaro hamjamiyat oldida OIV infeksiyasiga qarshi kurashish bo'yicha olgan majburiyatlarini to'laqonli bajarilishini ta'minlaydi.

References:

1. LA.Majidov V. M., Yuqumli kasalliklar, T., 1996; Shovahobov Sh. Sh., Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya asoslari, T., 1997.m
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. Shonosir Shovahobov.
3. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)*
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Epidemiologiya>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Infektion_kasalliklar
6. <https://yuz.uz/uz/news/ibn-sino-asarlari--infektsiya-bilan-kurashayotgan-olimlar-uchun-qollanma>
7. <https://lex.uz/docs/-4111365#-4115711>
8. <https://avitsenna.uz/hiv-aids/>
9. <https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-oit-sga-oid-yangi-k-aror-k-abul-k-ilinadi-9256>